

Shodiyeva Mehribon Faxriddin qizi

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti Pedagogika kafedrası o‘qituvchisi

PRAGMATIK PRESUPPOZITSIYA HODISASI VA TAGMA‘NO

ANNOTATSIYA: Maqolada tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan pragmatologiyaning asosiy va bosh tushunchalaridan presuppozitsiya, tagma‘no, ular o‘rtasidagi farqlar hamda o‘xshashliklar, tilshunoslarning presuppozitsiya haqidagi fikrlari borasida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: presuppozitsiya, tagbilim, tagma‘no, eksplitsit, implitsit, semantik presuppozitsiya, pragmatik presuppozitsiya.

XX asrning ikkinchi yarmidan tilshunoslikda presuppozitsiya hodisasi o‘rganila boshlandi. Presuppozitsiya termini lotincha sub – osti, tagi va ponere joylashtirmoq, joylashmoq kabi so‘zlardan olingan bo‘lib, asosga o‘zakka joylashtirmoq ma‘nolarini bildiradi.

Presuppozitsiyaning o‘rganilish tarixi o‘ziga xos bo‘lib, uni o‘rganish bilan dastlab tilshunoslar emas, balki mantiqshunoslar shug‘ullanib, hayotga tadbiiq etganlar. Xususan, ushbu tushuncha mashhur mantiqshunos olim G. Frege g‘oyalari bilan bog‘liq bo‘lib, uning fikricha, presuppozitsiya hukmning tabiiy asosi sifatida o‘rganilishi lozim. Jumladan, presuppozitsiyani o‘rganib, uning ustida tadqiqotlar olib borgan tilshunoslar uni quyidagi turlarga bo‘lib, tahlil qilganlarini ko‘rishimiz mumkin:

Georg Yul presuppozitsiyani bir necha turlarga bo‘ladi:

Ekzistentsiyal presuppozitsiya – Salim keldi – Salim mavjud.

Faktiv presuppozitsiya – Kelganimdan xursandman – Keldim.

Nofaktiv presuppozitsiya – Salim kulishga harakat qildi – Uning kulgisi kelmas edi.

Leksik presuppozitsiya – U qochib keta oldi – U qochishga urindi.

Strukturaviy presuppozitsiya – Karantin bo‘lmaganida (edi) – Hozir karantin.

V.Gak presuppozitsiyani 3 ga bo‘lib tadqiq etadi:

- 1) keng presuppozitsiya;
- 2) tor presuppozitsiya;
- 3) lingvistik presuppozitsiya.

Keng presuppozitsiya ostida kishilarning o‘zini qamrab turgan obyektiv reallik haqidagi universal bilimi tushuniladi. Masalan, shafyor haqida gap ketganda, so‘zlovchi va tinglovchi, eng avvalo, uni mashina haydovchisi deb biladi. Shuning uchun “Shafyor mashinani tez haydadi” – jumlasida mashina so‘zi tushib qolsada, ma‘noga putur yetkazmaydi.

Tor presuppozitsiya ostida esa faqat ma'lum vaziyat doirasidagina ro'y beradigan presuppozitsiya tushuniladi. So'zlovchilarning shu tilni bilish tajribasidan kelib chiqadigan presuppozitsiya lingvistik presuppozitsiyadir.

Presuppozitsiya gapning tashqi strukturasi implitsit va eksplitsit ifodasiga ega bo'ladi. Tilshunos olimi I. V. Samoylova ham bu fikrga qo'shiladi. Uning ta'kidlashicha, nutqiy gapda presuppozitsiya nafaqat implitsit tarzida ifodalanadi, balki propozitsiyaning shakliga ishora qilishda hamda gap shakllanishida qo'shimcha semantik ishoralarni qo'llashda eksplitsit ifodasiga ham ega bo'ladi. Tilshunos Xoang Fe esa presuppozitsiyani ifodaning implitsit mazmuniga tenglashtirishni inkor etadi.

Eksplitsit – pragmatik maqsad va mazmunning ochiq ifoda etilishi (oshkoralik). Masalan : G'azab bilan gazetani ... yoqdi! (T. Murod). Implitsit – Pragmatik maqsad va mazmunning yashirin ifoda etilishidir (yashirin). „Ahmad ikki boshli ilonni ushladi” va „Ahmad ikki boshli ilonni ushlamadi” qabilidagi gaplarni matnda qo'llash va ularni tushunish uchun so'zlovchi hamda tinglovchiga ikki boshli ilonning mavjudligi (yoki mavjud emasligi) bir xilda ma'lum bo'lishi kerak.

Presuppozitsiya va tagma'no o'ziga xos bir qancha farqlovchi uzvlarga ega hamda alohida-alohida nutqiy hodisalarni anglatadi. Bahor ham keldi. Ushbu gapda ham presuppozitsiya, ham tagma'no mavjud:

Presuppozitsiya:

- 1) bahorning uzoq kutilganligi;
- 2) qishning qattiq bo'lganligi;
- 3) dehqonchilik ishlarining borishi.

Tagma'no so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida o'zaro bahorda amalga oshirilishi lozim bo'lgan shartnomaning bajarilish muddati.

Presuppozitsiya “ham“ yuklamasining ishorasi, obyektiv borliqdagi holat, so'zlovchi va tinglovchilar o'rtasidagi shartnomaviy munosabat, nutqiy vaziyat, umumiy bilim olish xazinamizdagi oldindan ma'lum bo'lgan axborotlar asosida mantiqiy tarzda tushunilgan. Matn ostidagi ma'no so'zlovchi va tinglovchilar uchun tushunarli. Tagma'no ham yuqoridagi barcha uzvlarning ishorasi va ishtirokida tushuniladi. Lekin so'zlovchi va tinglovchilardan bittasigagina taalluqli bo'lib, oldindan kelishuv matni orqali anglashiladi. Tagma'no anglashilgan ma'no gap ifoda diktumidan emas, oldingi matn vositasida tushuniladi.

Hozirgi o'zbek tilshunosligida “podtekst” so'zi ostida tushunilayotgan “tagma'no” ning yuzaga chiqishi uchun quyidagi uzvlarning bo'lishi shart hisoblanadi:

1. Nutqiy vaziyat.
2. So'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi “sirli sulh”.

Bahor ham keldi gapidan nutqiy vaziyatga oldindan tuzilgan sulh asosida boshqacha tagma'no ham anglashilishi mumkin. Tagma'noning o'zgarishiga “oldindan tuzilgan sulh”ning mazmuni ta'sir etadi. So'zlovchi o'zi biror narsani bahorda berishi kerakligi haqida sulh tuzgan bo'lsa-yu, tinglovchilar orasidan biror kishi undan xabardor bo'lsa, tagma'no shu 2 kishigagina tushunarli bo'ladi va “beradigan vaqt bo'lganligi, qaytarish uchun tayyorlanayotganligi, o'sha kishiga aytib, ko'nglini tinchitib qo'yishi” haqidagi yashirin axborot yetib boradi. Lekin presuppozitsiya

o'zgaraydi. Bundan shu narsa aniq bo'ladiki, tagma'ning o'zgarishiga "oldindan tuzilgan sulh" ta'sir etyapti. Lekin gapning ifoda planida aytilishi kerak bo'lgan axborot ham anglashilyapti. So'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi "oldindan tuzilgan sulh" – "oldingi matndan, voqealardan xabardorlik imkoniyati" muloqotda qatnashayotganlarning barchasi uchun birday taalluqli emas. Ulardan bittasi yoki ikkitasi uchun aniq bo'lishi mumkin. Lekin presuppozitsiya barchaga tushunarli bo'ladi.

Demak, presuppozitsiya va tagma'no bir sath doirasida tekshirilsa ham ular alohida-alohida pragmatik hodisalar hisoblanadi. Ularning tuzilish uzvlarida ham, ishora usullarida ham farqlanish bor. Bunday farqlanish esa, hozirgi kundagi tilshunoslik va adabiyotshunoslikning shu yo'nalish sohasidagi chalkashliklarga chek qo'yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008.
2. Hakimov M. O'zbek tili pragmatikasini o'rganish. Farg'ona, 2011.
3. Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap. O'TA , 1985 6-son.
4. Nurmonov A., Ma'mudov N. va b. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. Toshkent, 1992. 113-bet.
5. Hakimov M. Tagma'no va tagbilim xususida ba'zi mulohazalar. O'TA// 2001.
6. Pardayev A. O'zbek tilida zidlov bog'lovchilar presuppozitsiyasi. O'TA // 2012.
7. Internet saytlari.
wikopediya.uz
ziyonet.uz
ziyo.uz.